



INTEGRATING SCIENCE, THOUGHT, AND TECHNOLOGY: TOWARD AN ARTIFICIAL INTELLIGENT ENVIRONMENT

17/11/2025

INGLIZ TILI DARSLARIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Karimova Nilufar Ummatkulovna

O'zDJTU

Hozirgi davrda oliy ta'lim tizimi global raqobatga tayyor, mustaqil fikrlovchi va o'z-o'zini rivojlantira oladigan mutaxassislarni tayyorlash vazifasini bajarishi lozim. Shu nuqtai nazardan, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish oliy ta'limda sifatni oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayon talabalarning nafaqat o'zlashtirish darajasini oshirishga, balki ularning kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, o'z-o'zini boshqarish va reflektiv yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. UNESCO (2019) ta'kidlaganidek, XXI asr ta'limi "learning to learn" tamoyiliga asoslanishi, ya'ni talabalarda mustaqil bilim olish va uni amaliyotda qo'llash kompetensiyalarini shakllantirishi zarur [1].

Oliy ta'limda mustaqil ta'limni samarali tashkil etish bir necha asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, o'quv dasturlarini talabalar markazli yondashuvga moslashtirish zarur. Biggs va Tang (2011)ning konstruktiv yondashuvi talabalarni passiv bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantirish orqali mustaqil ta'limni rivojlantirishga asoslanadi [2]. Ikkinchidan, zamonaviy texnologiyalar, masalan, Learning Management System (LMS), MOOC (Massive Open Online Courses) platformalari, multimedia resurslaridan foydalanish talabalarga mustaqil o'rganishda qulaylik yaratadi. Bu esa nafaqat darslik va an'anaviy materiallarga tayangan holda, balki real hayotiy vaziyatlarni modellash orqali chuqur o'rganishga imkon beradi [3].

Shuningdek, samarali mustaqil ta'limni tashkil etishda pedagogning roli ham o'zgaradi. O'qituvchi nazorat qiluvchi emas, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, motivator va fasilitator sifatida harakat qilishi lozim. Bu yondashuv, talabalarda o'z o'qish jarayonini boshqarish, vaqtni samarali taqsimlash va shaxsiy mas'uliyatni oshirish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, baholash tizimi ham yangicha yondashuvni talab qiladi. An'anaviy yakuniy baholashdan tashqari, formativ baholash, peer-assessment va o'z-o'zini baholash (self-assessment) elementlarini tatbiq etish talabalarni o'z o'zlashtirish jarayonini tanqidiy qayta ko'rib chiqishga undaydi [4].

Shunga ko'ra, mustaqil ta'limning samarali tashkil etilishi o'quv jarayonining yuksalishiga, talabalarning shaxsiy va professional kompetensiyalarining rivojlanishiga, hamda ta'lim sifatining oshishiga bevosita hissa qo'shadi. Bu jarayon, ayniqsa, nofilologik yo'nalishlarda

xorijiy til o'qitishda talabalarning kommunikativ va "soft skills" kompetensiyalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limni samarali tashkil etish hozirgi kunda ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Biroq, tadqiqotimiz davomida belgilab olingan vazifalarga ko'ra, Guliston davlat universitetining Xorijiy til fanidan (ingliz tili) iqtisod yo'nalishidagi o'quv dastur tahlili shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim komponenti yetarlicha tizimlashtirilmagan va bu talabalarda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini cheklab qo'ymoqda. Dasturda mustaqil ishlarning hajmi ko'rsatilgan bo'lsada, uning mazmuni, baholash mezonlari va o'qituvchi yordami bo'yicha batafsil metodik ko'rsatmalar mavjud emas. Bu esa talabalarning mustaqil ravishda o'quv vazifalarini bajarishda passivlikka, faqat auditoriya mashg'ulotlariga tayanuvchanlikka olib keladi.

Bundan tashqari, mustaqil ta'lim jarayoni hozirgi globallashuv va mehnat bozorida talab etilayotgan "soft skills"ning rivojlanishiga ham yetarlicha hissa qo'sha olmayotgani kuzatiladi. Chunki dasturda kommunikativ kompetensiyalar, jamoada ishlash, liderlik, tanqidiy va ijodiy fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan topshiriq va faoliyat turlari ko'zda tutilmagan. Mazkur holat talabalarning o'z-o'zini boshqarish, o'quv motivatsiyasi va o'zlashtirish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlar ko'pligi (ko'pincha umumiy hajmning 55–60 foizi)ga qaramay, talabalarning bu jarayonda faol qatnashishi pastligi kuzatiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqtisod yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar mustaqil ta'lim jarayonida ko'proq nazariy materiallarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan, amaliy va interaktiv faoliyatlar esa yetarli emas. Bu esa ularning kommunikativ kompetensiyasi, ijodiy fikrlash va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, mustaqil ta'limda "soft skills" takomillashtirishga qaratilgan metodik yondashuvlar yetishmaydi. Vaholanki, bugungi mehnat bozorida iqtisodchilar uchun o'zini o'zi boshqarish, vaqtni samarali taqsimlash, jamoada ishlash va rahbarlik qilish qobiliyatlari talab qilinmoqda.

Shu bois, mustaqil ta'lim jarayoniga soft skillsni integratsiya qilish quyidagi sabablarga ko'ra zarur:

- Talabalarning o'quv motivatsiyasini oshirish. "Soft skills" asosidagi topshiriqlar (problem-based learning case study, interaktiv muhokamalar) talabalarning faol ishtirokini rag'batlantiradi.
- Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish. Kommunikatsiya, muammolarni hal qilish, jamoaviy hamkorlik kabi ko'nikmalar iqtisodchilar faoliyatida asosiy rol o'ynaydi.
- Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish. Masalan, raqamli platformalar orqali mustaqil ta'limni tashkil etish va talabalarning o'zaro baholash faoliyati soft skillsni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Bundan tashqari, xalqaro tajribada ham soft skillsni mustaqil ta'limga integratsiya qilishning samarali modellari mavjud. AQSh va Yevropa universitetlarida mustaqil ta'lim PBL (Problem-Based Learning), TBL (Team-Based Learning) kabi yondashuvlar asosida tashkil qilinib, ularning asosiy komponentlari sifatida tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, yetakchilik va adaptivlik rivojlantiriladi .

Shu nuqtai nazardan, iqtisod yo'nalishi uchun mo'ljallangan o'quv dasturlarini takomillashtirishda quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

- Mustaqil ta'limning mazmunini qayta ko'rib chiqish va unga soft skills komponentlarini integratsiya qilish;
- Baholash mezonlarini kengaytirish, bunda nafaqat bilim darajasi, balki shaxslararo muloqot, hamkorlik, kreativlik kabi ko'nikmalarni ham qamrab olish;
- Pedagoglarning metodik tayyorgarligini oshirish, ular mustaqil ta'lim jarayonida soft skillsni rivojlantiruvchi vazifalarni ishlab chiqishi va tatbiq etishi uchun.

Olib borgan tadqiqotlarimiz doirasida, iqtisod yo'nalishi talabalarining mustaqil ta'lim olish jarayonini takomillashtirish vazifasi borasida, ularning "soft skills"ni rivojlantirishga qaratilgan Linguskills.uz platformasi ishlab chiqildi.

Hozirgi global raqobat sharoitida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki amaliy ko'nikmalarni, ayniqsa "soft skills" – kommunikatsiya, liderlik, jamoaviy ishlash, tanqidiy va ijodiy fikrlash kabi kompetensiyalarni rivojlantirish bilan ham uzviy bog'liqligi nuqtai nazaridan, talabalarining mustaqil ta'lim jarayonini takomillashtirish va uni zamonaviy talablarga moslashtirish maqsadida ishlab chiqilgan Linguaskills.uz onlayn platformasi iqtisod yo'nalishi talabalari uchun ingliz tilini o'qitish jarayonida "soft skills"ni integratsiyalashga xizmat qiladi.

Linguaskills.uz platformasining asosiy maqsadi – talabalarni mustaqil o'rganishga undash, ularning kommunikativ kompetensiyasini oshirish hamda o'quv jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan passivlik va motivatsiya yetishmasligi kabi muammolarni bartaraf etishdan iboratdir. Platforma foydalanuvchilarga qulay interfeys, interaktiv topshiriqlar, va guruhli ishlash imkoniyatlarini taqdim etadi, bu esa o'z navbatida talabalarining shaxsiy mas'uliyatini oshiradi va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi .

Ushbu platformaning soft skillsni rivojlantirishdagi o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish – platforma foydalanuvchilarga forumlar, chatlar va video muhokamalar orqali ingliz tilida muloqot qilish imkonini beradi. Bu jarayonda talabalar o'z fikrlarini erkin ifodalash, argumentatsiya qilish va samarali tinglash kabi ko'nikmalarni egallaydilar.

2. Jamoada ishlash va hamkorlik – guruhli loyihalar va vazifalar yordamida talabalar birgalikda ishlashni, mas'uliyat taqsimlashni va qaror qabul qilishni o'rganadilar.

3. Muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash – platformadagi case study, scenario-based learning (vaziyatli o'qitish) va muammo yechishga qaratilgan mashqlar talabalarning analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

4. O'z-o'zini boshqarish va vaqtni samarali taqsimlash – platformadagi shaxsiy kabinetcha orqali talabalar o'z o'quv jadvalini tuzishi, vazifalarni rejalashtirishi va bajarilgan ishlarni monitoring qilish imkoniga ega bo'ladilar.

Xalqaro tajribalar ham ko'rsatmoqdaki, raqamli platformalarning o'quv jarayonida joriy etilishi nafaqat til o'rganish samaradorligini oshiradi, balki talabalarning "soft skills"ini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi (Nguyen et al., 2020; Ellis, 2019)[5]. Xususan, Britaniya Kengashining (British Council) tadqiqotlariga ko'ra, onlayn platformalar orqali mustaqil ta'lim tashkil etilganda talabalar o'zaro ko'proq muloqot qiladi va bu ularning professional rivojlanishiga yordam beradi[6].

Linguaskills.uz platformasi iqtisod yo'nalishidagi talabalar uchun maxsus moslashtirilgan bo'lib, u ingliz tilini o'rganish bilan birga global biznes muhiti, iqtisodiy matnlarni tahlil qilish va xalqaro muzokaralarda ishtirok etish kabi amaliy vazifalarni bajarishni ham nazarda tutadi. Bu esa talabalarning til ko'nikmalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida, linguaskills.uz platformasining mustaqil ta'lim jarayoniga integratsiyasi talabalarda:

- ingliz tilini amaliy qo'llash ko'nikmalarini;
- shaxsiy va kasbiy soft skills kompetensiyalarini;
- raqamli texnologiyalar yordamida o'z-o'zini o'qitish madaniyatini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNESCOUNEVOC. (2019, July 15). *World Youth Skills Day 2019: Learning to learn for life and work*. UNESCOUNEVOC.
2. Biggs, J., Tang, C. (2011). *Teaching for quality learning at university: What the student does* (4th ed.). Maidenhead: Open University Press/McGraw-Hill Education.
3. Benson, P. (2011). *Teaching and researching autonomy in language learning* (2nd ed.). Harlow: Pearson Education Limited.
4. Suciu, A. I., & Lacatus, M. L. (2014). The role of the lifelong learning in the context of the knowledge-based society. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 142, 439–443.
5. Nguyen, Y. R. (2025). *The Role of Digital Tools in Language Learning and Acquisition*. Universal Research Reports, 12(2), 141–156.